



## ARTICLE INFO

Received: 07<sup>th</sup> November 2022  
Accepted: 15<sup>th</sup> November 2022  
Online: 17<sup>th</sup> November 2022

## KEY WORDS

Innovatsiya, ilm-fan,  
innovatsiya  
vazirligi, innovatsiya  
to'g'risidagi  
qonunlar, innovatsion loyiha,  
innovatsion faoliyat.

**INNOVATSIYA**-(ing. Yaratilgan yangilik, ixtiro) axborot texnologiyalari asosida qilingan yangilik tushuniladi. Har bir sohani yuksaltirish uchun zamon bilan hamnafas bo'lgan holda ilmiy-texnika bilimlarini tashkil etib ommaga taqdim qilish tushuniladi. Insonning intellektual faoliyati, uning ijodiy ishlari, ixtirolari, fantaziyalari kabi jarayonlarning natijasi hisoblanadi. XIX-asrda 1-bo'lib tadqiqotlar natijasida paydo bo'lgan. Innovatsiyani faqat yangilik deb qabul qilmasdan buni biror bir faoliyat turini yaxshilash, ish samaradorligini oshirish deb tushunishsak bo'ladi.

**Ilm-fan**- bu mablag'larni bilim va fikr, g'oyalarga aylantirish.

**Innovatsiyalar**- bu o'sha bilim, ko'nikma, fikr, g'oyalarni pulga aylantirishdir. Albatta yaxshi innovatsiya qilsangiz uni yaxshigina daromadga korxonalar, tashkilot va (hokozo) larga sotsangiz bo'ladi.

Innovatsiyaning asosi:

## INNOVATSION FAOLIYAT

Isoqova Muxlisa Faxriddin Qizi

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT VA  
TEKNOLOGIYALARI UNIVERSITETI TALABASI

Isoqovamuhlisa8@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7332952>

## ABSTRACT

*Bu maqolada innovatsioniyalar, innovatsion loyihalar, innovatsion faoliyat haqida gap boradi. Davlatimizda innovatsion faoliyatga bo'lgan e'tibor haqida ham gap boradi. Innovatsion faoliyatni jahon bozoridagi o'rnini. Innovatsion yondashuv, xodimlar bilan ishlashda innovatsiyalar haqida.*

1. Ko'proq o'qib izlanib kerakli mahsulotni topish
2. Aniq bir maqsad qo'yish
3. Xaridorni nima xohlayotganini sezib, diqqatli bo'lish
4. Yangilik - o'zgarishlarni yaxshi biladigan, mahsulot bozoriga nima kerakligini oldinda ko'ra bilib yangiliklarni taqdim etish
5. Judayam sinchikovlik
6. Tashabbuskor bo'lish
7. Motivator bo'lish

Oddiygina misol qilsak innovatsiya vazirligida qancha loyihalar yangiliklarni olib borib talaba yoshlar o'zlarining kelajagi uchun poydevoryaratmoqda. Innovatsiyalar zamonaviy iqtisodiyotda uzoq muddatli raqobatdoshlikni ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi.

Davlatimizda innovatsion faoliyat, loyihalarga katta e'tibor qaratilmoqda. "Innovatsiyalar kuni", "Innovatsiyalar va texnologiya va strategiya markazi"



, “Innovatsiya vazirligi” va hokozo tashkil qilinishi albatta quvonarli.

Endigi navbatni innovatsion faoliyatga qaratadigan bo'lsak axborot texnologiyalarini izchil o'sishi albatta foydali, lekin ta'lim berish, o'qitish jarayonlari ham bu bilan hamohang olib borish kerak. Innovatsion faoliyatda pedogogning o'rni (ta'lim jarayonini oladigan bo'lsak) muhim sanaladi. Innovatsiyalar ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha zarur mexanizmlarni yaratishga ustivor yo'nalish sifatida qaralyotgani muhimdir. Bularni zamirida ilmiy va oliy ma'lumotli pedagoglarni tayyorlash, dars jaroyonida ham iinovatsion g'oyalarni targ'ib qila oladigan, talabalarni shu sohaga nisbatan qiziqishini uyg'ota oladigan kadrlarni tayyorlashdir.

Davlatimiz ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilyotgani bejizgamas. Ta'lim sifatini oshirib, kelajakda o'z samarasini berish uchun qilinayotgan harakatlardir. Bu bilan pedagogni boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan tortib oliy o'quv yurti o'qituvchilarigacha ularni tez-tez attestatsiya sinovlaridan o'tqizib turish, yangi zamonaviy texnika va texnologiyalarni bilish darajasini tekshirilib berilmoqda. Bundan tashqari bakalavr o'quv etapidan keyingi o'quv turlarida ham juda katta o'zgarishlar bo'lmoqda. Masalan hozir magistraturaga kirmoqchibo'lsangiz albatta chet tilini ingliz tilini bilishingiz shart. Yoki doktorantlar ham har olti oyda o'zlarini qilgan ishlarini nimalar bilan bant, nima yangiliklar qilishdi, ilmiy ishi bo'yicha qanchalik tayyor ya'ni ma'lumotlarini yig'ib o'qib- izlanishyotganini hisobotini o'qiyotgan o'quv yutiga topshirib turishlari shart. Bu bilan albatta O'zbekistonimizga

kerakli oliy pedagog bo'lib yetishishlari uchun davlatimiz tomonidan qilinayotgan ishlardir. Shu bilan birga modul tizimi bo'yicha va o'qitishning innovatsion metodlarini rivojlantirish o'quv- jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llashga ham e'tibor qaratilmoqda. Innovatsion faoliyatni iqtisodiy jihatdan qaraydigan bo'lsak:

Innovatsion faoliyat jahon bozorida raqobatlashishi yoki raqobatdoshligini ta'minlaydi har qanday narsani. Innovatsion faoliyatlar iqtisodiy jihatdan tavarlar, mahsulotlarni zo'r sotilishini ta'minlaydi. Umuman olganda innovatsiyani olib tahlil qilib uni o'rganib innovatsion loyiha yaratamiz o'sha innovatsion loyihani yoki mahsulotni amalga oshirish, biror tashkilot, firma ishlab chiqaradigan mahsulot, texnika, texnologiyalarni amalga oshirish natijasidir. Innovatsion faoliyat mahsulotni ishlab chiqargandan so'ng uni boshqa mahsulotdan ustunlik qila olishi va sotuvda “o'z o'rniga” ega bo'lishi ham demakdir. Va bu mahsulotda yaratilgan innovatsiyalarni tarqatish jarayoni ham kiradi.

Innovatsion loyiha- Bu yaratilgan, kashf qilingan yangiligimizni, innovatsiyamizni to'la tokis tugatilgan jarayoni tushuniladi. Ya'ni innovatsiyamizni bemalol taqdim eta oladigan holatimiz tushuniladi. Innovatsion loyihani amalga oshirish -innovatsion mahsulotlarimizni yaratish va bozorga chiqarish jarayoni innovatsion loyihani maqsadi shundan iboratki - yangi tizimlarni, yangi mahsulotlar, yangi dasturlar, saytlarni yaratish jarayonidir. Yoki mavjud narsalarni tahrirlash jarayoni tushuniladi.

O'zbekistonimizda ko'plab innovatsion loyihalar tanlovi o'tqaziladi va unda talabgorlar qatnashishi mumkin. Unda



o'zini loyahasini olib brogan shaxslar tashkilot, firma va shunga o'xshash faoliyat yurg'izadigan joylarda mablag'ga sotishi mumkin.

Innovatsion yondashuv – ta'lim olish jarayonida muoammoli savollarni muhokama qilish jarayonidir bu bilan birga bu savollarga javob topsh bilan talabalar muammolarni yechib , tahlil qilib qandaydir jihatdan innovatsion faoliyatni anglab yetib uni rivojlantirishga harakat qiladi.


Kadrlar bilan yoki xodimlar bilan ishlashda innovatsiyalar:

Inson resurslari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish va har bir lavozimga munosib nomzodni tanlab olish orqali mamlakatimiz o'sishiga yurtimiz iqtisodiyotiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi deb o'ylaymiz. Har bir

kadrlarimizga o'zing faoliyatidan kelib chiqib topshiriq berib keyin oxirida umumiyashtirsa yaxshi loyihalar kelib chiqadi deb o'yliman .

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti 24.07.2020 yildagi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qarorda ham innovatsion faoliyatni rivojlantirish , innovatsion faoliyatni qo'llab – quvvatlanishi , innovatsion faoliyat natijasi erishilgan mol-mulklarni davlat tomonidan muhofaza qilinishi , iinovatsion faoliyat yuritadigan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi, innovatsion faoliyat sohasida kadrlar tayyorlash, innovatsion faoliyatni chet davlatlar bilan hamkorlikni oshirish haqida gap boradi.

Innovatsion faoliyatning asosiy ,kerakli kalit so'zlari:





Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan boshqarishi , rag'batlantirilishi haqida gaplashdik . O'zi umuman olganda innovatsion faoliyatni huquqiy va axborot ta'minotida iqtisodiyot yotadi. Va yana uning zamirida : innovatsiyani tashkil etish uni jahon bozoriga olib kirish , yaxshi daromatga sotish , davlatimizga foyda keltiradigan loyihalar yaratish yotadi.

Misol uchun men hozirda faoliyat yuritayotgan innovatsion loyihamni aytib

o'tmoqchiman . Men "Ingliz tilini" masofadan o'qitishni tashkil etishga mo'ljallangan elektron resurs ishlab chiqaraman. Bunda har qanday odam internetdan foydalangan holda meni elektron resursimga kirib ingliz tilini o'rganishlari mumkin bo'ladi. Yani uyda , ko'chada , bozorda, boshqa davlatda turib siz darsga yoki qo'shimcha kurslarga bormasdan ingliz tilini o'rganishingiz mumkin.

## References:

1. <https://windsc.ru/uz/features/osnovnye-etapy-sozdaniya-i-realizacii-innovacionnyi-proekt/>
2. Z. F. SHAROPOVA, «TA'LIM TEXNOLOGIYALARI» darslik. - T.: «Navro'z» nashiryoti, 2019, 340 bet  
"Innovatsion texnologiyalar ,, kitobxon.com
3. "Innovatsion faoliyat turlari yo'nalishlari va klassifikatsiyasi" Talqin va tadqiqot jurnali (25.03.2020) R.Ro'ziyev D.To'lanazarova
4. Innovatsiya tushunchasi  
Terabayt.uz
5. Ta'lim tizimida pedagogik shaklning o'ziga xos jihatlari  
<https://xs.uz>
6. <https://lex.uz/docs/-4910391>